

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING OROL DENGIZI EKOLOGIK
MUAMMOSI YUZASIDAN BMT BILAN HAMKORLIGI**

Alimov Quwanishbay Tursinbekovich

Abatov Asqar Reymbaevich

Nukus davlat pedagogika instituti o'qituvchilari

Tayanch so'zlar: Orol muammosi, ekologiya, atrof-muhit, xalqaro tashkilotlar, BMT, tabiyat, omil, samarali hamkorlik

Ключевые слова: Аральская проблема, экология, окружающая среда, международные организации, ООН, природа, фактор, плоды сотрудничества

Key words: Keywords: Aral Sea disaster, ecology, environment, international organizations, UN, nature, factor, fruits of cooperation

REZYUME. Bu maqolada Orolbo'yni aholisi oldida turgan keskin muammolarni hal etishda O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan hamkor haqida so'z boradi. Bunda ayniqda Orol dengizi qurishi oqibatida yuzaga kelgan muammolarni hal qilishda Birlashgan Millatlar Tashkiloti asosiy xamkor hisoblanadi.

РЕЗЮМЕ. В данной статье речь пойдет о сотрудничестве Узбекистана с международными организациями в решении острых проблем, стоящих перед жителями Приаралья. Организация Объединенных Наций является ключевым партнером в решении проблем, вызванных высыханием Аральского моря.

SUMMARY. This article will focus on Uzbekistan's cooperation with international organizations in solving acute problems facing the residents of the Aral Sea region. The United Nations is a key partner in addressing the problems caused by the drying up of the Aral Sea.

Hech kimga sir emaski, tabiyatga bepisand munosabat oqibatida 1960 yillarning oxirida Orol fojiasi boshlandi. 1960 yillarda dunyoning to'rtinchi eng yirik ko'li bo'lgan Orol dengizining sathi oxirgi 40-yil davomida ikki baravar kichrayib ketdi. Orol dengizidan sug'orish ishlarini noto'g'ri foydalanish oqibatida, uning suvlari qurib, tuproqda tuzlar va boshqa minerallarni qoldirdi. Ular nafaqat tuproqni ifloslantirdi, balki shamol va bo'ronlar orqali ko'tarilib, boshqa hududlarga, shu jumladan ekin maydonlariga ham tarqaldi. Bu nafas olish tizimi kasalliklari va saratonning kuchayishiga olib keldi. Orol hajmining o'zgarishi mahalliy iqlimga ham ta'sir qildi va bo'ronlarning ko'payishi va kuchayishiga olib keldi[1;4]

Orol dengizining qisqarishi natijasida mahalliy aholi salomatligi bilan bog'liq muammolar yuzaga kelgani shubhasiz. Orol dengizi hududining ko'p qismi zarar ko'rganligining asosiy sabablaridan biri „suvdan noto'g'ri foydalanish“ edi. Orol dengizi mintaqasidagi o'zgarishlar natijasida inson salomatligiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan ekologik ta'sirlarga „suv sathining pasayishi, atrof-muhit va oziq-ovqat zanjiridagi pestitsidlar, chang bo'ronlari va havodagi o'zgarishlar“ misol bo'ladi[2:8]

Bugungi kunda BMT tomonidan Orol fojiasidan jabr ko'rgan aholiga amaliy yordam ko'rsatish bo'yicha shu maxsus dasturlar qabul qilinmoqda.

Orol muammosi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 68-sessiyasining rasmiy hujjati sifatida tarqatilgan "Orol dengizi qurishining oqibatlarini bartaraf etish va Orolbo'yida ekotizimlar halokatining oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi"da qayd etilgan.

1990 yil 23 iyun kuni Olmaotada Markaziy Osiyo va Markaziy Osiyo mamlakatlari rahbarlarining birinchi Qo'shma bayonotida Orolbo'yi, Orol dengizi havzasida ekologik muvozanatni tiklashga qaratilgan sa'y-harakatlarni birlashtirish maqsadida respublikalararo komissiya tuzishga va Orolbo'yi aholisiga yordam berish jamg'armasini tashkil etishga kelishib olindi.

Ushbu muammoni hal etishga BMTning ixtisoslashtirilgan muassasalari va boshqa xalqaro tashkilotlarni jalg qilgan holda Orolbo'yi davlatini umumxalq ofati zonasi deb e'lon qilish va ekologik jamg'armani tiklash bo'yicha Davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish to'g'risida qaror qabul qilish iltimosi bilan chiqdi [3;6]

1991 yil 10-12 oktyabr kunlari Toshkentda bayonot e'lon qilindi

Markaziy Osiyo respublikalarining suv xo'jaligi organlari rahbarlari Orol dengizi muammolarini birlashtirish va birgalikda hal qilish zarurligini ta'kidladilar.

2008 yil 11-12 mart kunlari Toshkentda O'zbekiston va BMT hamkorligida "Orol muamosi, uning aholi genofondi, o'simlik va hayvonot dunyosiga ta'siri hamda oqibatlarini yengillashtirish borasida xalqaro hamkorlik chora-tadbirlari" mavzusidagi xalqaro konferentsiya tashkil etildi. Mazkur konferentsiya Orol va Orolbo'yi muammolarini bartaraf etish bo'yicha Toshkent Deklaratsiyasini qabul qildi [4.34].

Olimlar Orol fojiasini 1980-yillardagi Chernobil fojiasiga tenglashtirib, uni «sokin Chernobil» deb atadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining sobiq Bosh kotibi Pan Gi Mun 2011 yilda Mo'ynoqqa qilgan tashrifidan so'ng, Orol dengizining qisqarishi «sayyoradagi eng yomon ekologik ofatlardan biri» deb ataldi. Orol dengizi juda ifloslangan, buning natijasida aholi salomatligi bilan bog'liq jiddiy muammolar mavjud. UNESCO Orol dengiziga oid tarixiy hujjatlarni ekologik fojiani o'rganish uchun manba sifatida «Jahon xotirasi» reestriga kiritdi [2.3]. Bir paytlar 66 ming kvadrat kilometr maydonni egallagan Orol dengizi ayni paytda azaliy qirq'oqlaridan 250-280 kilometrga uzoqlashib, zaharli chang-to'zonlari bilan hayotimizga xavf solmoqda. 2018-yili 27-may kuni Qoraqalpog'istonda kuzatilgan zaharli, chang-to'zonli dovul ko'zatildi [5.34]. Orol dengizi yiliga 100 ming tonnagacha zaharli tuzlarni atrofga sochib, hatto uzok Ximolay tog'lariga ham yetkazdi.

Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi 2013-yildan buyon BMT, Yevropa Ittifoqi, yetakchi xalqaro tashkilotlar va moliya institutlari ko'magida Orol dengizi havzasidagi mamlakatlarga yordam ko'rsatish bo'yicha uch yuzdan ziyod loyihadan iborat uchinchi dasturni amalga oshirmoqda [6.3]. Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi mintaqadagi sifat jihatidan yangi davlatlararo munosabatlarga, mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashga, murakkab suv xo'jaligi masalalarini nizolarsiz hal etishga ko'maklashdi. Jamg'arma va uning

tashkilotlari mamlakatlar, donorlar va xalqaro tashkilotlar o'rtaсидаги музокаралар жарони учун platforma bo'ldi. Mintaqaning suv resurslarini taqsimlash, birgalikda boshqarish, ulardan foydalanish va muhofaza qilish sohasida hamkorlik to'g'risida bir qator shartnomalar va bitimlar qabul qilindi, Orol dengizi havzasidagi mamlakatlarga yordam berish bo'yicha bir nechta harakatlar dasturlari amalga oshirildi. 2008-yil dekabr oyida OQXJ BMTda kuzatuvchi maqomini oldi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020 yil sentyabr oyida BMT Bosh Assambleyasining 75-essiyasida chiqish qilib, jahon hamjamiyati e'tiborini yana bir bor Orol dengizi inqirozining butun mintaqaga ko'rsatayotgan zararli ta'siriga qaratdi. O'shanda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Orolbo'yи hududini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish taklif etgandi.

O'zbekiston rahbari tomonidan xalqaro minbarlarda hamda mintaqaviy darajadagi nufuzli tadbirlar doirasida bildirilgan ushbu barcha tashabbus va takliflar asta-sekin haqiqatga aylanmoqda.

Olimlarning fikriga ko'ra, Qozog'iston hududida joylashgan Orolning shimoliy qismi eng hayotiy hisoblanadi. U erda baliq ovlash hali ham davom etmoqda. Bundan tashqari, yaqinda Orol dengizi suvlarida baliqlar oziqlanadigan kichik qisqichbaqasimonlar paydo bo'ldi, shuning uchun ularning o'sishini kutish mumkin. Orol hayotidagi yana bir tendentsiya – ko'lning sho'rланishining pasayishi va uning suvliligining oshishi kuzatilmoqda.

O'zbekiston Prezidenti Administratsiyasi Ijro etuvchi apparatining Kommunikatsiyalar va axborot siyosati bo'yicha sho'ba mudiri Saida Mirziyoyeva Birlashgan Millatlar Tashkilotining N'yu-Yorkdagi bosh qarorgohida bo'lib o'tgan BMTning suv resurslari bo'yicha konferentsiyasida ishtirok etdi. Saida Mirziyoyeva Orol dengizi ekologik halokatiga qarshi kurashda madaniyat va bunyodkorlikning muhimligini ta'kidladi. U O'zbekiston madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasining yirik ta'lif va madaniy dasturlarni o'z ichiga olgan «Orol madaniyati sammiti» loyihasini taqdim etdi.

BMT va rivojlanish bo'yicha boshqa hamkorlarimiz 1993-yil BMT va Markaziy Osiyoning besh davlati tomonidan tashkil etilgan Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasini qo'llab-quvvatlayotgani ham buni tasdiqlaydi. O'tgan davrda mazkur jamg'arma xalqaro donorlar hamjamiyati yordamida Orol dengizi havzasidagi mamlakatlarga yordam ko'rsatish bo'yicha umumiyligi 2 milliard dollardan ziyod bo'lgan ikkita dasturni amalga oshirdi.

Xulosa qilib aytganda, Orol dengizi halokatining atrof-muhit va bu yerda yashayotgan aholi hayoti va faoliyatiga yetkazayotgan ekologik muammolarni bartaraf etish Birlashgan Millatlar Tashkiloti, boshqa xalqaro tashkilotlar va rivojlanish bo'yicha hamkor davlatlarning samarali yordamisiz amalga oshirib bo'lmaydi.

ADABIYOTLAR:

1. Micklin, P. P. (1988). [Desiccation of the Aral Sea: A Water Management Disaster in the Soviet Union](#). Science. 241 (4870), 1172 & 1175.

2. Small, I., Van Der Meer, J., & Upshur, R. E. G. (2001). [Acting on an Environmental Health Disaster: The Case of the Aral Sea](#). Environmental Health Perspectives. 109 (6), 547 & 548.

3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг "Орол денгизи минтақасидаги экологик оғат оқибатларини юмшатиш бўйича ҳамкорликни ривожлантириш" мавзусидаги халқаро конференцияда сўзлаган маъruzаси (2014 йил 28 октябрь)

4.<https://bugun.uz/urib-borajotgan-tarih-orol-dengiziga-sajo-at#4>

5.Ж.Базарбаев. «Жабрланган халқ тарихида янги сахифа очилди» Нукус. Билим. 2019

6. <https://islomkarimov.uz/uzc/article/ozbekiston-va-bmt-tinchlik-khavfsizlik-va-barqaror-taraqqiyot-jolidagi-hamkorlik>

7. «Еркин Қарақалпақстан» газетаси 31.05.2018 № 68 (20154)

8. Современная история Международного Фонда спасения Арала и перспективы дальнейшего регионального сотрудничества. <https://kazaral.org/aralskij-sammit-2018-novyj-trend-vodnogo-sotrudnichestva-v-centralnoj-azii/>